

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDAGI INNOVATSION JARAYONLAR SAMARADORLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Igamova Sh.Z.

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi Phd
www.doi.org/10.5281/zenodo.10574778

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi innovatsion jarayonlar samaradorligining nazariy va uslubiy asoslari va xorij olimlarining fikrlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Qurilish materiallari, sanoat korxonalari, innovatsion jarayonlar, samaradorlik, iqtisodiyot.

Innovatsiyalar innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi bo'lib hisoblangani uchun bu tushunchani ta'riflashga yondashuvlarni ko'rib chiqish zarur. Innovatsion faoliyat deganda innovatsion loyihalarni amalga oshirishga, shuningdek, innovatsion infratuzilmani tashkil etish hamda uning faoliyatini ta'minlashga qaratilgan ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyati tushuniladi. Innovatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bo'yicha Metodik tavsiyalar (Oslo Yo'riqnomasi)¹da innovatsion faoliyat deganda innovatsiyalarni real tarzda amalga oshirish yoki mana shunday maqsadlarda o'ylab chiqilgan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijoriy harakatlar, shu jumladan, biron-bir konkret innovatsiyani tayyorlash bilan bog'liq bo'lmagan tadqiqotlar va ishlanmalar tan olinadi. Bunda mazkur faoliyat turlarining ayrimlari o'z holicha innovatsiya bo'lib hisoblanadi, boshqalari esa bu xossaga ega bo'lmasada, lekin innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lib sanaladi.

R.A.Fatxutdinovning tadqiqotlarida innovatsion faoliyat – bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini bozorda sotiluvchi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga aylantirishga yo'naltirilgan jarayon deb talqin qilinadi².

G.C. Gamidov esa innovatsion faoliyat – bu yangi ilmiy bilimlar, g'oyalar, ixtirolar va kashfiyotlarni, shu jumladan, mavjud va sinovdan o'tgan ilmtalab texnologiyalar, tizimlar va qurilmalarni joriy qilish hamda ulardan foydalanish asosida innovatsiyalarni “kaliti bilan” ijtimoiy amaliyotda yuzaga chiqarishga qaratilgan kishilar jamoasi faoliyatining tizimli turi deb hisoblaydi³.

P.N. Zavlin uqtirib o'tadiki, innovatsion faoliyat tushunchasini innovatsiyalarni yaratish jarayonidan ajratmagan holda uni ancha kengdir – bu bizning fikrimizcha, ancha mantiqan to'g'ridir⁴.

Ayrim tadqiqotlarda keltirib o'tilishicha⁵, innovatsion faoliyat – bu “o'z ichiga nafaqat innovatsion jarayonlarni, balki tovarlarni sotish bozorlari, ularning iste'molchilik

¹Руководство ОСЛО. Рекомендации по сбору и анализу данных по инновациям. Третье издание. Перевод на русский язык. Государственное учреждение "Центр исследований и статистики науки" (ЦИСН), 2010. – 107 с.

²Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник, 4-е изд. — СПб.: Питер, 2011. — 400 с.

³Гамидов Г. С. Основы инноватики и инновационной деятельности / Г. С. Гамидов, В. Г. Колосов, Н. О. Османов. — СПб.: Политехника, 2009. - 323 с.

⁴Завлин П.Н. Основы инновационного менеджмента: Теория и практика: Учебное пособие для вузов / Барютин Л.С., Валдайцев А.В. и др.; Под редакцией Завлина П.Н. и др. - М.: Экономика, 2011. – 475 с.

⁵Баранчеев В.П., Гунин В.Н. Инновационный менеджмент:– М., 2000. – 252 с.

xossalarining marketing tadqiqotlarini, shu jumladan, axborot, konsalting, ijtimoiy va boshqa turdagi xizmatlarni tashkil etishga yangicha yondashuvlarni ham oladigan texnik, texnologik, tashkiliy-iqtisodiy yangiliklarni ishlab chiqish va ularning joriy etilishini amaliy o'zlashtirish sohasi"dir.

Innovatsiyalarning yuqorida keltirib o'tilgan xossalaridan kelib chiqib, innovatsion faoliyatni ma'lum bir maqsadlarga, ularga erishish vositalariga va ijobiy natijalarga erishilishiga ega bo'lgan innovatsion jarayon ishtirokchilarining o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladigan ilmiy, texnik, tashkiliy, moliyaviy va marketing chora-tadbirlari majmuasi natijasida yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish nuqtai-nazaridan olib qarash maqsadga muvofiqdir.

Innovatsiyalar hozirgi kunda iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyot asosi bo'lib hisoblangani uchun hozirgi zamon jamiyatida rivojlanishning asosiy shakli sifatida o'rta chiqish bilan korxonalarining innovatsion faoliyati boshqarilishini bu faoliyatning ilmiy-texnik taraqqiyotga mosligi pozitsiyasidan turib olib qarash lozim bo'ladi. Mahsulotli va jarayonli innovatsiyalar to'la hoda mana shu texnologik innovatsiyalarga mos keladi. Oslo Yo'riqnomasida belgilangan notexnologik innovatsiyalar – marketingli va tashkiliy innovatsiyalar – aksar hollarda endilikda mavjud bo'lgan mahsulotlar va texnologiyalarning hayotiy siklini uzaytirish bilan ilmiy-texnik taraqqiyotni birmuncha susaytiradi.

Biroq, korxonalarining barqaror innovatsion rivojlanishi innovatsion texnologiyalarsiz mumkin emasdir. Korxonaning innovatsion texnologiyasi o'zida boshqaruv va tashkiliy jarayonlarni ularning bir butun yaxlitligida amalga oshirish mexanizmini namoyon qiladi, innovatsion rivojlanish konsepsiyasini shakllantirisha va xodimlar uchun uning umumiy ko'rinishini ko'ra olishga imkon beradi.

Innovatsion mafkuraning ta'sir ko'rsatishdagi maqsadi barcha ishlab chiqarish tuzilmalari uchun universal bo'lib hisoblanadi va xodimlarda innovatsion rivojlanish haqidagi tasavvurlar, uni anglash, xulq-atvor va qadriyatli yo'nalishlarning barqaror tiplarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Innovatsion mafkura korxonaning missiyasida o'z aksini topadi.

References:

1. Руководство ОСЛО. Рекомендации по сбору и анализу данных по инновациям. Третье издание. Перевод на русский язык. Государственное учреждение "Центр исследований и статистики науки" (ЦИСН), 2010. – 107 с.
2. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник, 4-е изд. — СПб.: Питер, 2011. — 400 с.
3. Гамидов Г. С. Основы инноватики и инновационной деятельности / Г. С. Гамидов, В. Г. Колосов, Н. О. Османов. — СПб.: Политехника, 2009. - 323 с.
4. Завлин П.Н. Основы инновационного менеджмента: Теория и практика: Учебное пособие для вузов / Барютин Л.С., Валдайцев А.В. и др.; Под редакцией Завлина П.Н. и др. - М.: Экономика, 2011. – 475 с.
5. Баранчев В.П., Гунин В.Н. Инновационный менеджмент:– М., 2000. – 252 с.

6. Игамова Ш. З. ОСОБЕННОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ С ПОЗИЦИЙ
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 42. –
С. 170-174.



INNOVATIVE
ACADEMY